



QATTIQ MAISHIY CHIQINDILARNI BOSHQARISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI BILAN MUVOFIQLIGI

<https://doi.org/10.70728/conf.susta.v02.i01.009>

*To'raxonov Dostonbek Muzaffarbek o'g'li -
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi yo'nalishi talabasi,
Masharipov Adamboy Atanazarovich -
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti dotsenti, b.f.f.d. (PhD).*

Annotatsiya. Zamonaviy ekologiya va iqtisodiyotning kesishmasida qattiq maishiy chiqindilar boshqaruvi tizimi muhim o'rin egallaydi. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar boshqaruvi tizimining 2023–2025 yillardagi hozirgi holatini batafsil tahlil qiladi va uning Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDG 11 – Barqaror shaharlar va jamoalar; SDG 12 – Mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish) bilan muvofiqligini baholaydi. Ushbu yondashuv O'zbekistonni Barqaror Rivojlanish maqsadlariga yaqinlashtiradi va ekologik xavfsizlikni ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: qattiq maishiy chiqindilar, barqaror rivojlanish maqsadlari, chiqindilarni qayta ishlash, poligonlar rekultivatsiyasi, plastik chiqindilar.

Kirish. Qattiq maishiy chiqindilar boshqaruvi zamonaviy ekologiyaaning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib, global urbanizatsiya va iste'mol madaniyatining o'sishi bilan bog'liq. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda har yili 2 milliard tonna ortiq qattiq maishiy chiqindilar hosil bo'lmoqda va 2050-yilga borib bu ko'rsatkich 3,4 milliard tonnaga yetishi mumkin (UNEP, 2023). Ushbu chiqindilarning 33% i faqatgina rivojlanayotgan mamlakatlarda poligonlarga joylashtirilishi yer va suv resurslarini ifloslanishiga, issiqxona gazlari (metan) emissiyasi va bioxilma-xillikning yo'qolishiga sabab bo'lib, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda:

O'zbekiston kabi Markaziy Osiyo mamlakatlarida bu muammo yanada keskinlashmoqda. Mamlakat aholisi 40 millionga yaqinlashayotgan, urbanizatsiya darajasi 50% dan oshgan hozirgi davrda chiqindilar hajmini yana orttirmoqda: 2010-yilda 6–7 million tonna bo'lgan qattiq maishiy chiqindilar 2025-yilda 15,1 million tonnaga yetgan (kun.uz, 2026). Aholi jon boshiga chiqindi miqdori 165–200 kg/yilni tashkil etadi, bu esa o'rtacha 254 ming vagon chiqindiga teng. Plastik chiqindilarning ulushi 10,3% (1,05



million tonna) ni tashkil etib, 2022-yildagi 249,2 ming tonnadan 4–5 baravar ortgan (Plastex.uz, 2025). Bunday o‘shish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy zarar keltiradi: chiqindilar boshqaruvi uchun aholiga 1,304 trillion so‘m to‘lovlar to‘langan, ammo qayta ishlash darajasi past (32–35%).

BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida 11-maqsad shaharlarning barqaror rivojlanishini, shu jumladan chiqindilar ta‘sirini kamaytirishni ko‘zda tutadi. Barqaror rivojlanish 12-maqsadiesa mas‘uliyatli iste‘mol va ishlab chiqarishni, chiqindilarni ekologik xavfsiz boshqarishni talab qiladi. O‘zbekiston 2019-yilda qattiq maishiy chiqindilar boshqaruvi strategiyasini (“2019 — 2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 17.04.2019 yildagi PQ-4291-son) qabul qilib, 2028-yilga qayta ishlash darajasini 60–65% ga yetkazishni maqsad qilgan. “Yangi O‘zbekiston” (2022–2026) va “O‘zbekiston – 2030” strategiyalari ham chiqindilar masalasini ustuvor qilib belgilagan bo‘lib, unda poligonlarni qisqartirish, rekultivatsiya va saralash tizimini joriy etish masalalari belgilangan.

Metodologiya. Tadqiqotda milliy va xalqaro manbalarni qamrab oladi. Asosiy materiallar: O‘zbekiston Ekologiya vazirligi va Davlat statistika agentligi hisobotlari (2023–2025 yillar bo‘yicha chiqindilar hajmi, qayta ishlash darajasi va poligonlar holati), Milliy strategiyalar: PQ-4291 (2019), PF-5863 (2022, “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi) va “O‘zbekiston – 2030” (2022), Xalqaro hisobotlar: UNDP Uzbekistan VNR (2023), UNEP Sustainable Waste Management in Central Asia (2023), GGGI Uzbekistan Country Planning Framework (2024–2028), BMT SDG Index (2025) va UNSDCF 2026–2030.

Usullar: statistik tahlil: foiziy ko‘rsatkichlar solishtirma usul va trend tahlili (2019–2025 yillar). SWOT tahlili: tizimning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash.

Natijalar. O‘zbekistonda qattiq maishiy chiqindilar boshqaruvi tizimi 2019-yildan beri sezilarli rivojlanmoqda. 2023-yilda chiqindilar hajmi 10,2 million tonnani tashkil etgan bo‘lib, 2024-yilda 12–13 million tonnaga, 2025-yilda 15,1 million tonnaga yetgan (Kun.uz, 2026; Plastex.uz, 2025). Bu o‘shish urbanizatsiya (aholi shaharlarda 51%) va iste‘mol o‘shishiga bog‘liq. Aholi jon boshiga chiqindi 165 kg/yil (2023) dan 200 kg/yilga (2025) oshgan (NSDG.stat.uz, 2025). Chiqindilar tarkibi: oziq-ovqat chiqindilari 25%, qog‘oz 5–10%, polimerlar (plastik) 50%, metall, to‘qima va shisha qolgan qismi (UNECE, 2025).

Qayta ishlash darajasi 2019-yildagi 9–21,9% dan 2025-yilda 32–35% ga ko‘tarilgan (E3S Web of Conferences, 2025). Plastik chiqindilar ulushi 10,3% (1,05 million tonna), 2022-yildagi 249,2 ming tonnadan keskin oshgan. Import plastik 2023-yilda 158,5 ming tonna (487,5 mln dollar), eksport 47,3 ming tonna (90,1 mln dollar) (Plastex.uz, 2025).



Poligonlar soni jami 185–198 ta poligon mavjud bo‘lib, 2024–2025 yillarda 47 tasi (90–144 gektar) rekultivatsiya qilingan (Gov.uz, 2025). 18 ta poligon 81,68 gektarda to‘liq tiklangan, yerlar tabiatga qaytarilgan. “Yashil makon” loyihasi doirasida poligonlar atrofiga 197 ming daraxt ekilgan, bu metan emissiyasini 5–10% ga kamaytirgan (Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi, 2025). Qishloq hududlarida yig‘ish darajasi 50% dan kam, shaharlarning 60–75% ida tizim mavjud.

Barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiqligi:

Barqaror rivojlanishning 11- Shahar va aholi yashash joylarining ochiqqligi, xavfsizligi, mustahkamligi va ekologik barqarorligini ta‘minlash (barqaror shaharlar) maqsadiga ko‘ra trend pasaymoqda (IAIS, 2025). Shahar chiqindilar ta‘siri kamaymoqda, ammo poligonlar yaqinidagi aholi uchun ekologik xavf yuqori.

Barqaror rivojlanishning 12 - Oqilona iste‘mol qilish va ishlab chiqarish modellariga o‘tishni ta‘minlash (mas‘uliyatli iste‘mol) maqsadiga ko‘ra chiqindilarni qayta ishlash holati Barqaror rivojlanish maqsadidan past (65% o‘rniga 32%). E-waste hajmi 2024-yilda 268 ming tonnaga yetishi prognoz qilinmoqda (UNITAR, 2024).

1-jadval

Qattiq maishiy chiqindilar hajmi va qayta ishlash dinamikasi (2019–2025)

<i>Yil</i>	<i>QMC hajmi (mln tonna)</i>	<i>Qayta ishlash (%)</i>	<i>Poligonlar soni</i>	<i>Rekultivatsiya maydoni (gektar)</i>
2019	7–8	9–21,9	185	10–20
2023	10,2	25–30	198	47
2025	15,1	32–35	185	90–144

(Manba: Ekologiya vazirligi, 2025; Kun.uz, 2026)

Muhokama. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston qattiq maishiy chiqindilar boshqaruvi tizimida sezilarli yutuqlarga erishgan. Chiqindilar hajmi o‘shishiga qaramay, qayta ishlash darajasi ikki baravar ortgan va poligonlar rekultivatsiyasi amalga oshirilmoqda. Bu Barqaror rivojlanish maqsadlarining 11 va 12 maqsadlariga qisman muvofiq. Bunda atrof-muhitga shahar chiqindilarining ta‘siri kamaymoqda, chunki “Yashil makon” loyihasi orqali poligonlar atrofi yaxshilanmoqda. 12 maqsadga ko‘ra aholining mas‘uliyatli iste‘mol tamoyili PQ-4291 strategiyasida aks etgan.

Muammolar: infratuzilma etishmasligi (qishloqda yig‘ish 50% dan kam) va aholi xabardorligi pastligi. Plastik chiqindilarning o‘shishi (10,3%) metan emissiyasini orttirmoqda, bu iqlim o‘zgarishiga ta‘sir qiladi. Xalqaro tajribaga ko‘ra: Yevropa Ittifoqida “Circular Economy” paketi orqali qayta ishlash 55–60% ga yetkazilgan (UNEP, 2023).



Janubiy Koreyada chiqindilarni saralash majburiy bo'lib, qayta ishlash 95% (GGGI, 2024). O'zbekiston uchun ushbu tajribani moslashtirish mumkin. Bunda plastik chiqindilar uchun alohida yig'ish tizimini joriy etish va soliq imtiyozlari berish.

Takliflar:

- Chiqindilarni saralash tizimini 100% qamrab olish uchun mahalliy hokimiyatlar bilan hamkorlikda loyihalar ishga tushirish.
- Xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish orqali qayta ishlash zavodlari uchun soliq imtiyozlari va grantlar joriy etish.
- Raqamli monitoring (GIS va AI) orqali poligonlarni kuzatish, emissiyani hisoblash.
- Barqaror rivojlanish maqsadlari muvofiqligini oshirish uchun VNR (Voluntary National Review) da chiqindilar masalasini ustuvor qilish.
- Jamoatchilikni jalb qilish, bunda barcha ta'lim muassasalarida ekologik ta'lim va tarbiyani kuchaytirish.

Ushbu takliflar O'zbekistonni Barqaror rivojlanish maqsadlariga yaqinlashtiradi va ekologik xavfsizlikni ta'minlaydi.

Xulosa. O'zbekiston qattiq maishiy chiqindilar boshqaruvi tizimida muhim qadamlar tashlagan bo'lib, chiqindilar hajmi o'sishiga qaramay, qayta ishlash darajasi oshgan, poligonlar rekultivatsiya qilinmoqda va strategik hujjatlar Barqaror rivojlanish maqsadlariga mos keladi. Taklif etilgan choralar – saralash tizimi, xususiy sektor rag'batlantirish va raqamli texnologiyalar – 2028–2030 yillarda qayta ishlash darajasini 65% ga yetkazishi mumkin. Barqaror rivojlanish – nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy farovonlikning kaliti.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4291-son qarori, 17.04.2019.
2. UNDP. Uzbekistan VNR 2023. UNDP.org, 2023.
3. UNEP. Sustainable Waste Management in Central Asia, 2023.
4. GGGI. Uzbekistan CPF 2024–2028, 2024.
5. Kun.uz. Uzbekistan records 15.1 million tons of municipal waste in 2025, 2026.
6. Plastex.uz. Of the total volume of waste in Uzbekistan, more than 10% is plastic, 2025.
7. NSDG.stat.uz. SDG indicators for Uzbekistan, 2025.
8. UNITAR. National E-waste Monitor 2024.
9. Gov.uz. The Environmental Conditions at Landfills Are Improving, 2025.
10. E3S Web of Conferences. A Regression Analysis for Sustainable Waste Management in Uzbekistan, 2025.



-
- 11.UNSDCF. Uzbekistan Cooperation Framework 2026–2030, 2025.
 - 12.SDG Index. Sustainable Development Report 2025.
 - 13.IAIS. Uzbekistan's Progress Toward the 2030 SDGs, 2025.
 - 14.UNFCCC. Updated NDC of Uzbekistan (NDC 3.0), 2025.
 - 15.Stat.uz. Statistical data on waste in Uzbekistan, 2025.
 - 16.UNStats. SDG Extended Report 2025.
 - 17.UNSDG. Uzbekistan SDG Insights, 2025.
 - 18.UNECE. Environmental Performance Reviews Uzbekistan, 2025.
 - 19.UNICEF. Annual Report Uzbekistan 2024.